



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

TO'RTLİK JANRIDA ESTETIK TAFAKKUR VA SEMIOTIK TALQIN

Avazova Nilufar Oqiljonovna

BuxDPI, o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o'zbek to'rtliklarida badiiy san'atlar tizimi va semiotik (ramziy) qatlamlarning uyg'unligi tahlil qilinadi. Shoir dunyoni inson tafakkuri, tajriba va haqiqatni anglash maydoni sifatida talqin etar ekan, obrazlar orqali falsafiy hamda ma'naviy mazmunni chuqur ifodalaydi. Tahlil buxorolik shoir Samandar Vohidovning "Dunyo darsxonadir..." turkumidan olingan ayrim to'rtliklari misolida olib borilib, ramz, tashbeh, kinoya va tazod san'atlarining poetik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: to'rtlik janri, semiotika, badiiy san'atlar, ramz, poetika, falsafiy ifoda, timsol.

Zamonaviy o'zbek she'riyati o'zining falsafiy teranligi, timsollarga boyligi va badiiy shakl uyg'unligi bilan ajralib turadi. Xususan, to'rtlik janri qisqa shaklga ega bo'lishiga qaramay, unda inson, haqiqat va dunyo o'rtasidagi murakkab munosabatlar ramziy yo'sinda ifodalanadi. She'riy matnning semiotik xususiyati shundan iboratki, undagi har bir obraz — belgi va ramz sifatida o'zidan tashqaridagi ma'noga ishora qiladi. Shu jihatdan, to'rtlik janri so'z orqali timsol yaratishning eng ixcham, ammo falsafiy shakllaridan biridir. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida yaratilgan ayrim to'rtliklar asosida badiiy san'atlar tizimi hamda ramziy qatlam o'zaro uyg'unlikda o'rganiladi

Dunyo darsxonadir – degandi ustoz,

Uzukka ko'z kabi mosdir bu qiyos.

Neki o'qib uqdim bu darsxonada,

Baytlarim shu saboq takrori xolos.

Bu to'rtlikda hayot – muallim, dunyo – darsxona, inson – o'quvchi tarzidagi tashbeh asosiy semantik tayanch sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda Jamol Kamolning "Dunyo – darsxonadir, hayot – muallim" degan misralari nazarda tutilmoqda. Shoir "ustoz" so'zi orqali ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi timsolini keltiradi. "Uzukka ko'z kabi" iborasi esa tanosib va tashbeh san'atlarining uyg'un ifodasidir. Badiiy san'atlar nuqtai nazaridan to'rtlikda: Tashbeh: "Dunyo darsxonadir" — hayot maktabga o'xshatilgan. Tanosub: "uzuk", "ko'z", "qiyos" so'zlari uyg'unlikda ishlatilgan. Istiora: "Baytlarim saboq takrori" — she'rni ma'naviy dars sifatida talqin etadi. Kinoya: dunyo haqiqiy darsxona emas, lekin tajriba manbai sifatida talqin etilgan. Semiotik jihatdan bu to'rtlikda "dunyo", "ustoz", "uzuk" va "ko'z" ramzlari o'zaro bog'lanib, zohir va botin uyg'unligini ifodalaydi. "Uzuk" – butunlik, "ko'z" – haqiqat va nur, "ustoz" – yo'l ko'rsatuvchi manba, "darsxona" esa – hayot makoni.

Shoirning "baytlarim shu saboq takrori" degan so'zi o'z ijodini ustoz hikmatining davomchisi sifatida talqin etishidir. Bu to'rtlikning umumiy semantik maydoni ilm, kamtarlik va ruhiy kamolot g'oyalariga tayanadi.

Dunyoni o'lchaysan o'z qarichingda,

Farsahni jo etmoq bo'lib arshingda.

Soyamni o'lchama ovora bo'lib,

O'zim turibmanku mana qarshingda.

Bu to'rtlik falsafiy mazmunga ega: inson haqiqatni o'z "qarich"i bilan o'lchamoqda, lekin asl mohiyat bevosita qarshisida turibdi. She'rda metaforik o'lchov ramzlari ("qarich", "arshin", "farsah") orqali inson tafakkurining chekliligi ko'rsatiladi. Tazod: "qarich" (cheklilik) va "o'zim" (haqiqat) qarama-qarshiligi. Kinoya: "Dunyoni o'lchaysan" – bu hayot haqiqati emas, insonning sub'ektiv bahosi. Tashbeh: o'lchov orqali idrok jarayoni o'xshatilib ifodalangan. Husni ta'lil: "Soyamni o'lchama... o'zim turibman-ku" – go'zal sabab orqali izoh. Tanosub: "qarich – arshin – farsah – o'lchov" semantik maydoni. Semiotik jihatdan "soya" – insonning zohiriy aksi, "men" esa botiniy haqiqatdir. Bu zohir va botin, shakl va mohiyat

qarama-qarshiligini anglatadi. Shoirning “o‘zim turibmanku” degan yakuniy satri – haqiqatning o‘zini tan olish, ya’ni insonning bilish chegarasini anglash timsolidir.

Tahlil qilingan to‘rtliklarda zamonaviy o‘zbek she‘riyatining semiotik poetikasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoirilar: Ramz va belgilar orqali falsafiy ma‘noni ixcham shaklda beradi; Tashbeh, kinoya, tazod kabi badiiy san‘atlarni ma‘no qatlamini chuqurlashtirish uchun ishlatadi; Zohiriy shakl (soya, dunyo, darsxona) orqali botiniy haqiqat (haqiqat, ilm, nur)ni ifodalaydi. Natijada, zamonaviy to‘rtliklar o‘zining ixcham shakliga qaramay, chuqur falsafiy va ma‘naviy qatlamlarni ifodalovchi ramziy tizimga aylanmoqda. Bu holat to‘rtlik janrining semantik va semiotik imkoniyatlari kengligini hamda badiiy san‘atlarning falsafiy ma’noga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazova, N. O., & Zaripova, M. (2025). XALQNING ORZULARIGA QANOT BOG‘LAGAN SHOIR. Modern Science and Research, 4(5), 326-332.
2. SO, N. A. S. L. D. SHEVA LEKSIKASIDA DIALEKTAL SO ‘Z TURLARI (Buxoro viloyati, G ‘ijduvon tuman shevasi misolida). THEORETICAL ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS, 248.
3. Avazova, N., & HAMDAMNING, J. O. U. (2024). OTA. ROMANIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI//Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(1), 20-24.
4. Avazova, N. (2024). TA‘LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR: ANVAR OBIDJON IJODIDA TO ‘RTLİK SHAKLIGA YANGICHA POETİK MUNOSABAT IFODASI. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4)